

*Toshkent viloyati Bekobod shahri
3-umumta'lim maktabi
biologiya va kimyo fani o'qituvchisi
Ubaydullayeva N.R. ning
7-“A” sinfda o'tgan zoologiya fanidan
bir soatlik dars ishlanmasi*

Mavzu: Qushlarning ko'payishi va rivojlanishi



MAVZU: QUSHLARNING KO'PAYISHI, RIVOJLANISHI VA KELIB CHIQISHI.

I. DARS TURI:

ARALASH

Hamkorlikda o'qitish, hikoya uslubi va olmos uslublaridan foydalangan holda o'qitiladi.

DARS MAQSADI:

O'quvchilarga qushlarning ko'payishi, rivojlanishi,

uya qurishi va kelib chiqishi to'g'risida ilmiy tushunchalar berish.

DARSNING TARBIYAVIY MAQSADI:

O'quvchilarda qushlarga, tabiatga mehr uyg'otish, tabiatni asrab-avaylashga o'rgatish orqali

ekologik tarbiya berish.

Dars jihozi:

Mavzuga oid tarqatma materiallar, tuxumning tuzilishi ifodalangan tablisa, qushlar uyasi ifodalangan tablisa.

DARSNING BORISHI:

II. O'tgan mavzuni so'rash quyidagi savollar asosida bo'ladi.


- 1) Qushlarning xazm qilish sistemasi qanday tuzilgan?
- 2) Qushlarning nafas olish sistemasi qanday tuzilgan?
- 3) Qushlarning qon aylanish sistemasi qanday tuzilgan?
- 4) Qushlarning sezgi organlariga nimalar kiradi?
- 5) Qushlarning nerv sistemasi qanday tuzilgan?

III. Yangi mavzu bayoni quyidagi reja asosida bo'ladi.

- 1) Qushlarning ko'payish davri
- 2) Juft hosil qilish
- 3) Uya qurishi.

"Olmos" metodi.

Bunda o'quvchilar "Olmos"ning ochilmagan qirrasini ochadilar.



Asoli:

Olmos uolrodning allatropiyasi
b'olib uning qirralari o'zaro
jilo berib ochilsa shuene
yaraqlaydi va "briliant"
deb ataladi.

4)Tuxumning tuzilishi.

5) Jo'ja ochiladigan va uya quradigan qushlar

6) Naslga g'amxo'rlik qilish.

7) Qushlarning kelib chiqishi

Hikoya uslubi asosida bayon etiladi. Qushlarning ko'payish davri tuxumdan chiqadigan jo'jalar uchun oziqning mo'l-ko'l bo'lishiga bog'liq. Ko'pchilik qushlarning erkagi va urg'ochisi ko'payish davrida juft hosil qiladi.

Chumchuqsimonlar jufti bir mavsum saqlanadi. Laylaklar va boshqa yirik qushlar jufti uzoq yillar saqlanadi. Ayrim tovuqsimonlar doimiy juft hosil qilmaydi.

Karqurlar va qurlar jufti o'zaro bahsdan keyin saralanadi. Yirtqich qushlar laylaklar, kaptarlar daraxtlarga kosasimon uya ochadi.

Qizilishton va chittak kabi o'rmon qushlari daraxtlar kovagiga uya quradi. Qaldirg'ochlar bo'lsa uylar bo'g'otidagi yog'och to'sinlar ustiga uya quradi. Kakku tuxumini boshqa qushlar uyasiga tashlab ketadi. Qushlar tuxumi quyidagicha tuzilgan.

- ❖ Po'choq
- ❖ Po'choq pardasi
- ❖ Havo kamerasi
- ❖ Oqsil
- ❖ Oqsil ipchasi
- ❖ Sariqlik pardasi
- ❖ Sariqlik
- ❖ Embrion diski

Qirg'ovul, bedana, g'oz, o'rdak, tovuq kabi qushlar jo'ja bola ochadi. Kaptar, qaldirg'och, chumchuq, laylak, musicha va yirtqich qushlar jo'jasi zaif bo'lib ko'zlari yumuq, tanasi yalang'och jish bola bo'ladi.

Qushlarning nasliga g'amxo'rlik qilishni har-xil shaklda namoyon bo'ladi. Qushlar qadimgi sudralib yuruvchilardan kelib chiqqan.

Ularning eng qadimgi ajdodi: Arxiopteriklar

IV. Mustahkamlash.

146 betdagi test savollari ishlanadi va “Olmos” uslubi orqali o’quvchilarni mavzu yuzasidan bilimi mustahkamlanadi. Bunda o’quvchilar “Olmos” (yangi mavzu)ni qirralarini ochishadi.

(Rasmlar va tarqatma materiallar ilova qilinadi).

V. Uyga vazifa:

- 1) 44-§
- 2) Lug’at daftariga mavzusidagi biologik terminlarni yozib unga izoh berishni o’rganib kelish.
- 3) 146-betdagi savol va topshiriqlar ustida ishlash.



